

ISSN 3030-3370


№ 1 (4) 2024



AYNIY VORISLARI

XALQARO ELEKTRON JURNAL
INTERNATIONAL ELECTRONIC JOURNAL





ISSN 3030-3370

“AYNIY VORISLARI”

xalqaro elektron jurnal

«НАСЛЕДНИКИ АЙНИ»

**международный электронный
журнал**

“AYNIY’S SUCCESSORS”

international electronic journal

№ 1 (4) 2024

FOLKLORSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK MASALALARI

Quvvatova Dilrabo Xabibovna,
BuxDU professori, filologiya fanlari doktori (DSc)
Email: dilrabo68@mail.ru
Safarova Hilola Oxunjonovna,
BuxDU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

FITRATNING ADABIYOTSHUNOSLIKKA OID QARASHLARI

Annotatsiya: ma'lumki, Abdurauf Fitrat serqirra ijodida adabiyot nazariyasiga oid qimmatli qarashlari muhim o'rin tutadi. Bu jihatdan, olimning "Adabiyot qoidolari" asari katta material beradi. Unda adabiyotshunosning Sharq adabiyoti va adabiyotshunosligi manbalariga tayanib, ilgari surgan fikrlari aks etgan. Shu jihatdan, maqolada Fitratning badiiy so'z, sochim-tizim, adabiy tur, she'r tuzilishi, qofiya, syujet, kompozitsiya, uslub, mavzu, mundarija kabi masalalarga munosabati yoritilgan. Shu asosda olim nazariy qarashlarining bugungi fan uchun ahamiyatli jihatlari ilmiy dalillangan.

Kalit so'zlar: Abu Nasr Forobiy, Nizomiy Aruziy Samarqandiy, Kaykovus, Abdurauf Fitrat, Elbek, Cho'lpon, Botu, Qodiriy, "Adabiyot qoidolari", "Qobusnoma" badiiy so'z, sochim-tizim, adabiy tur, she'r tuzilishi, qofiya, sujet, kompozitsiya, uslub, mavzu, mundarija

Аннотация: важное место в трудах Абдурауфа Фитрата занимают ценные взгляды на теорию литературы. В этом отношении произведение ученого «Адабиёт қоидалари» («Правила литературы») представляет огромный интерес. В нём отражены идеи, выдвинутые литературоведом на основе источников восточной литературы и литературоведения. В связи с этим в данной статье описывается отношение Фитрата к таким вопросам, как художественное слово, стиль, литературный жанр, структура стихотворения, рифма, сюжет, композиция, стиль, тема и содержание. На этой основе научно обоснованы важные для современной науки аспекты теоретических взглядов учёного.

Ключевые слова: Абу Наср Фараби, Низами Арузи Самарканди, Кайковус, Абдурауф Фитрат, Эльбек, Чулпан, Бату, Кадири, «Литературные правила», художественное слово, «Кабуснаме», литературный жанр, структура стихотворения, рифма, сюжет, композиция, стиль, тема, содержание.

Abstract: It is known that Abdurauf Fitrat's valuable views on the theory of literature play an important role in this field. In this regard, the work of the scientist «Adabiyot qoidolari» («Rules of Literature») provides a lot of material. It reflects the ideas put forward by the literary critic based on the sources of Eastern

literature and literary studies. In this regard, the article describes Fitrat's attitude to issues such as artistic word, style, literary genre, poem structure, rhyme, plot, composition, style, theme, and content. On this basis, the important aspects of the scientist's theoretical views for today's science have been scientifically proven.

Keywords: Abu Nasr Farobi, Nizami Aruzi Samarqandi, Kaykovus, Abdurauf Fitrat, Elbek, Chulpon, Batu, Kadiri, «Literary rules», «Qobusnoma», literary art, literary genre, poem structure, rhyme, plot, composition, style, theme, content.

Kirish. Sharq adabiyotshunosligi o'zining yorqin sahifalariga ega. Badiiy so'z, uning qudrati, badiiy asar tuzilishi, tur va janr masalasi kabi muhim nazariy masalalar Abu Nasr Forobiydan tortib professor Fitrat asarlarigacha bo'lgan bosqichlarda o'z ifodasini topgan. Binobarin, Fitratning adabiyotshunoslikka oid asarlarini mutolaa qilar ekanmiz, uning ilmiy qarashlarida ko'proq Sharq adabiyoti va adabiyotshunosligi manbalari ta'siri yorqin kuzatiladi.

Asosiy qism. Ma'lumki, Nizomiy Aruziy Samarqandiy o'zining "Chahor maqola" nomli asarida she'r ilmining mohiyati va shoirning salohiyati haqida gapirar ekan: "Shoirlik shunday san'atki, (shoir) bu san'at orqali hayajonlantiruvchi tushunchalarni hosil qiladi va ta'sirchan qiyoslarni bir-biriga ulaydi" deb yozadi [1, 37]. Fitrat qarashlari ham shu fikrga hamohang. U o'zining 1926-yilda tartib bergan "Adabiyot qoidolari" nomli muallimlar va adabiyot havaslilari uchun yozilgan qo'llanmasida badiiy adabiyotga shunday ta'rif berdi: "Adabiyot – fikr, tuyg'ularimizdag'i to'lqunlarni so'zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to'lqunlarni yaratmoqdir" [2,19]. Nizomiy Samarqandiy "shoirlik" deganda adabiyotni nazarda tutadi. Zero, Sharq adabiyotining asosini she'riyat tashkil etgan. She'r orqali inson qalbida "hayajonlantiruvchi" kechinmalar hosil qilinadi. Aynan shu Fitratning talqinicha, "tuyg'ularimizdag'i to'lqunlarni" badiiy so'z yordamida aks ettiradi. Yana yuqoridagi parchalarni "ta'sirchan qiyoslarni bir-biriga ulaydi" degan fikr bilan kishilarda shu "to'lqunlarni yaratmoq"dir qarashi bog'lab turadi. Bu qarashlarda adabiyotning inson hayotidagi ma'naviy vazifasi o'z aksini topgan.

Kaykovus "Qobusnoma" asarida: "Bir xil vazn va qofiyaga qanoat qilmagil, san'atsiz, tartibsiz she'r aytmagil. She'r zarb va shaklda bo'lsa, ya'ni vazni to'la bo'lsa, yaxshi bo'ladi. Shoirlik qoidasiga ko'ra (she'r yozishda) san'atdan g'ofil bo'lmagil", [1, 33] – deb yozadi. Zero, Fitratning she'rga berilgan ta'rifi Kaykovus fikrlarini takomillashtirishga xizmat qiladi: "She'r yurak sezgilarini ko'rsatmakdir. Vazn va qofiya esa, so'zning "bezagi" (ziynati)dir. Yurakimizdagi sezgilarni to'g'ri bermakchi bo'lsaq qofiyasiz, vaznsiz bir she'r (sochim she'r) yoziladir. She'rimizni bezamakchi esak, vaznli, qofiyali she'r (tizim she'r) yozarmiz. Vazn va qofiya yurakimizdagi sezgilarimizni tasvirlay olmaydir" [1,75]. Kaykovus

Sharq she'riyati mazmuni va mohiyatidan kelib chiqib, she'rning asosiy xususiyati uning vazniga aloqadorligida deb biladi, san'atsiz, tartibsiz she'r aytmaslikni uqtiradi. Kaykovus badiiy so'zga katta baho berib, tartib deganda vaznni nazarda tutganligi ko'rinib turibdi. Fitrat she'r qudratini "yurak sezgilarini ko'rsatmak"da ko'radi. Yana vazn va qofiya uning bezagi ekanligini aytadi. Shu jihatdan mazkur qarashlar Kaykovus nazariy fikrlariga hamohanglik qiladi. Ayni zamonda Fitrat o'zi yashagan davr o'zbek she'riyati xususiyatlaridan kelib chiqib, bu qarashlarni izchil rivojlantiradi. Ya'ni tartibli she'rlar bilan birga vaznsiz she'r – sochimga xos jihatlarga e'tibor qaratadi.

Fitrat badiiy asarni ta'riflashda ham o'ziga xos yo'ldan boradi. Badiiy asarni "adabiy yumush bilan maydong'a chiqqan narsa"ning asar ekanligini to'g'ri ta'riflaydi. Bu jarayonni "zehniy yumush" – ijod deb ataydi. Bu jarayon esa ijodkorni qo'liga qalam olishga yo'llagan mavzu bilan bog'liq: "Ijodning birinchi natijasi asarning mavzu'i, ikkinchi natijasi asarning mundariyasi bo'ladi. Ondan keyin yozg'uchi mavzu' to'g'risida yig'ilg'an ma'lumotni (asarning mundariyasini) o'z zehnda belgili bir tartibg'a soladir. Bu esa asarning tartibi bo'ladi"[1, 113]. Ko'rinadiki, badiiy asar bilan bog'liq terminlar deyarli bugungi nazariya bilan mos keladi. Faqat "syujet" "tartib" termini orqali berilgan. Fitrat talqinicha, ijodkor dastlab asar mavzusini aniqlashi, mavzu asosida uning mundariyasini belgilab olishi va ularni tartibga solishi kerak. Haqiqatan, bu qarash "Badiiy asar nima?" degan savolga berilgan ilmiy javob bo'lib, zamonaviy nazariyalarga muvofiq keladi. "Mana shu yumushlar bilan yozg'uchi-adibning zehnda mavzu' ham to'g'rida ma'lumot belgili bir tilning so'zlari, gaplari bilan ifoda etilishi kerakdir. Shul "ifoda" etish bilan asar maydong'a keladir. Yozg'uchining zehnda yig'ilg'an mavzu' ham u to'g'rida tartibga soling'an ma'lumot, so'zlar, gaplar bilan ifoda etilmaganga asar sanalmaydir. Bu kun Elbek, Cho'lpon, Botu, Qodiriy, Sh. Sulaymon kabi o'zbek adib-shoirlari bor. Bularning ifodalari, albatta, o'zbekchadir. Biroq, u adib-shoirlarimizning asarlari o'qulg'anda ifodalarining bir-biridan o'zgacharak bo'lg'ani ko'runib turadir. Demak, bulardan har birining o'ziga maxsus bir ifoda yo'suni bor. Mana shul ifoda yo'sunig'a uslub deyiladir"[1, 114]. Ma'lumki, mavzu tartibga solish asosida har bir ijodkorning ifoda yo'sini, ya'ni uslubi shakllanadi.

Nuktadon adabiyotshunos nazariy tushunchalarni bir tizimga solar ekan, ularning har biri haqida maxsus to'xtaladi. Bu jihatdan mavzuga berilgan ta'rif nihoyatda qimmatli: "Adabiyotning mavzu'i butun tabiat, borliq dunyosi, insonning o'z ichki-tashqi dunyosida sezib onlag'anlaridir. Bir tomchi suvdan tengizgacha, bir uchqundan buyuk bir yong'ingacha, kichkina bir yapproqdan ulug' o'rmonlargacha nima bor esa, hammasi adib-yozg'uchi uchun mavzu' bo'larlik narsalardir"[1, 113]. E'tibor berilsa, inson yashab turgan borliqdagi hamma narsa mavzu bo'lishi mumkin. Faqat uni qay yo'sinda ochib berish, obrazga aylantirish

ijodkor iqtidoriga bogʻliqdir. Yana bir jihatni taʼkidlash kerakki, adabiyotshunosning bu qarashi bugungi adabiyot ilmi uchun ham ahamiyatli. Negaki, inson va u yashab turgan olam voqea-hodisalarini aks ettirishdan asosiy maqsad adabiyotning insonshunoslik ekanligi bilan aloqadordir.

Mundarija haqida fikr yuritish ekan, olim uning uchta xususiyatini alohida qayd etadi: “a) mavzu” tegrasidagi fikrlar, maʼlumotlar, voqealarning asar tilagiga muvofiq, asarning tilagini ochiq qilib bera olurlik boʻlgʻanlarini oladir; b) mundarijadagʻi asosiy qismlarning bir-biridan uzun, bir-biriga munosabatisiz boʻlmagʻanlarini oladir; v) mundarija qismlarining bir-biriga qarshi boʻlmasliqlari, yaʼni birtasining bergan taʼsiriga qarshi boʻlmasligʻini eng katta bir shart qilib koʻzda tutadir” [1,114]. Adib mavzuni yoritish uchun material yigʻar ekan, ularning hammasiga emas, eng muhimlariga eʼtibor qaratadi. Ikkinchidan, asar mundarijasida oʻziga xos izchillik va muvofiqlik boʻlishi talab etiladi. Uchinchidan, mundarija qismlari bir-biriga qarshi boʻlmasligi kerak. Olim fikrlarini davom ettirib, yozadi: “Mundarija yaxshi tartib etilgan sayin asarning qimmatini ortadir, yozgʻuchini muvaffaq boʻlishgʻa yaqinlashtiradir. Tartib mundarija uzra yurguziladir. Shuning uchun mundarija yetarliq darajada yigʻilib tollangʻandan keyingina tartibga kirish kerak. Tartib yolgʻuz asar yozishda emas, soʻz soʻylashda ham muhimdir” [1, 115]. Demak, mavzu mundarijani, mundarija esa tartibni taqozo etadi.

“Adabiyot muallimlari ham havaskorlar uchun qoʻllanma” sifatida yaratilgan “Adabiyot qoidalari” kitobida Fitrat tizim va nasriy uslublarga xos xususiyatlarni oydinlashtirishda Choʻlponning “Qor qoʻynida lola” hikoyasiga olti marta qayta-qayta murojaat qiladi. Fitrat badiiy asar mundariyasi (syujeti)ga toʻxtalib, hikoya misolida hodisa mohiyatini quyidagicha tavsiflaydi: “Misol uchun Choʻlponning (“Qor qoʻynida lola”) degan hikoyasini olingiz. Buni eski shaklda yozmoqchi boʻlganda, “Andoq rivoya(t) qilinurkim”, deb boshlab, “Samandar aka degan bor edi, uning bir qizi bor edi, bir qiziga sovchi yubordi...” deb voqealarni qatorlab tizib, asarni bitirgan boʻlar edi. Biroq Choʻlpon bunday qilmagan. Mundarijani yangi-yangi toʻrt faslga, toʻrt koʻrinishga boʻlgan.

Toʻy oʻyuni, shayx toʻyi, odamlarning bu toʻy toʻgʻrisida fikrlari hamda hikoyaning Samandar akaning qizi toʻgʻrisida boʻlganini sezdirmasdan qizlarning toʻb oʻyunlarini juda ustalik bilan tasvir etishga kirishkan...” [2, 25]. Soʻngra badiiy asarda tartib muammosiga toʻxtalganida yana shu hikoyaga murojaat qilib, unda ortiqcha oʻrinlar borligi va buning hikoya kompozitsion qurilishida parokandalikni yuzaga keltirganligini shunday izohlaydi: “Choʻlponning yuqoridagi hikoyasidagʻi toʻrtinchi koʻrinishi, yaʼni: ikki yigitning koʻchada toʻy toʻgʻrisida gapirishlari, qorovulning-da ularga qoʻshulishi ortiqcha bir fasldur. Hikoya uchinchi faslda bitirilsa edi, qorovul tilidan onglashilmoq istanilgan edi.

Soʻzlar ochiq onglashilgan boʻlar edi. Hikoyaning taʼsiri ham ortgan boʻlar edi.” [2, 26].

Uchinchi marta hikoyadan bir parcha keltirish bilan Choʻlponning nazm - “sochim”dagi uslubini nasr – “tizim”lardagi ijodidan namunalar keltirib, ularning individual uslublariga xos xususiyatlarni koʻrsatish evaziga shunday xulosaga keladi: “Demak, uslub zamon bilan oʻzgargani kabi shaxs bilan ham oʻzgaradir. Hatto yana biroz chuqurroq borib, bir kishining sochim-tizim yozganida ham uslubning oʻzgarib qolganini koʻramiz. Navoiyning uslubi tizimda hashamatli bir ohang bilan yuradir, sochimda esa tez ogʻirlashib qoladir. Yana biroz ingichkarak qaraganda bir shoir uslubining asarning mavzuʼiga koʻra oʻzgarganini ham koʻramiz. Navoiyning “Layli-Majnuni”dagʻi oʻynab qaynagʻan uslubini uning “Lison ut-tayr”ida koʻrib boʻlmaydir. Biroq bu oʻzgarishlar (yaʼni: asarning shakli yo mavzuʼiga koʻra boʻlgʻan oʻzgarishlar) asosan emasdir. Navoiy ham Choʻlponning uslublari tizim-sochimda, yo mavzuʼaga koʻra oʻzgarmak bilan ularning “oʻzlik”larini (shaxsiyatlarini) yoʻqotmaydir. Choʻlponning Choʻlponligi, Navoiyning Navoiyligi bu shoirlarning tizim-sochim asarlarida mavzuʼ oʻzgarishiga qaramasdan koʻrunib turadir” [2, 28]. Fitrat hikoyaning janriy va badiiy xususiyatlariga toʻxtalganida ham shu hikoyani tilga oladi, unda istiora sanʼati gʻoyat muvaffaqiyat bilan qoʻllanganini asoslashga intiladi.

Fitrat uslubning xususiy hollari tabiatiga daxldor qarshulik (antiteza) sanʼati mohiyatini ocharkan, bu sanʼatning ikki qirrasini koʻrsatishga intilib, Bobur va Choʻlpon sheʼriyatiga murojaat qiladi. Boburning mashhur “Yaxshiliq” gʻazalidan bir bayt va yana bir ruboiysini keltirib, ularda qoʻllangan “yorugʻlik-qorongʻu, yomonligʻ- yaxshiliq, jafo-vafo, javr-mehr, bosh-oyoq” soʻzlari antiteza (qarshulik)ni yuzaga keltirganini taʼkidlaydi: “Biroq bu koʻrganlarimiz, - deb yozadi u, -soʻzdagi qarshulikdir. Holbuki, qarshulikning eng yaxshisi “fikrlararo qarshuliyasashdir” [2, 73]. Bunday antitezaning yorqin va goʻzal namunasi sifatida Choʻlponning “Men va boshqalar” sheʼrini toʻlaligicha koʻchirib koʻrsatadi. Shu asosda soʻzlardagi antonimik maʼno bilan poetik fikrdagi qarama-qarshilikni alohida hodisalar sifatida ajratadi. Sheʼr tabiatiga toʻxtalgan paytida, sochma sheʼr namunasi sifatida Choʻlponning “Kleupatra”siga murojaat qilib, undan parcha keltiradi [2, 22-23]. Fitrat bu bilan Choʻlponning naqadar yuksak isteʼdod egasi ekanligini koʻrsatib beradi.

Xulosa. Yuqorida tahlil etganimiz nazariy qarashlar Fitratning teran fikrli adabiyotshunos ekanligini tasdiqlab turadi. U fanga olib kirgan va taʼriflagan terminlardan bugungi adabiyot ilmida, milliy adabiyotshunosligimiz terminlari tizimini yaratishda va lugʻatlar tuzishda qimmatli manba vazifasini oʻtaydi. Chunki olimning nazariy qarashlari koʻp asrlik Sharq adabiyoti mohiyati va mazmuni bilan chambarchas bogʻliqdir. Mazkur fikrlar Fitratning serqirra ijodkor boʻlishi barobarida nigohi teran nazariyotchi ekanligini ham tasdiqlab turadi.

ADABIYOTLAR:

1. Шарқ мумтоз поэтикаси Ҳамидулла Болтабоев талқинида. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
2. Абдурауф Фитрат. Адабиёт қоидалари. Адабиёт муаллимлари ҳам ҳаваслилари учун қўлланма (нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Ҳ. Болтабоев). – Т.: Ўқитувчи, 1995.
3. Quvvatova D. World and Uzbek poems: comparison and analysis. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. p-ISSN: 2308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085 (online).Year: 2020 Issue: 04 Volume: 84.Published: 30.04.2020 <http://T-Science.org.uz>.
4. Nafosat, U., & Quvvatova, D. (2019). An untraditional description style in the epos of Ikrom Otamurod. International Journal of Engineering and Advanced Technology, 8(5 Special Issue 3), 396-399.
5. O'roqova, N. (2024). ABDULLA ORIPOV LIRIKASIDA RAMZIY-FLORISTIK OBRAZLAR IFODASI. *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 1(3), 193-199.
6. Quvvatova D., Sohibova Z. Symbolic Description of the Year Seasons in Uzbek Poetry. International Journal of Engineering and Advanced Technology (IJEAT). ISSN: 2249 – 8958, Volume-8, Issue-5S3 July 2019.

MUNDARIJA

№	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
SADRIDDIN AYNIIY HAYOTI VA IJODIGA DOIR TADQIQOTLAR			
1.	Мурувватиён Чамила Чамол	Масъалаҳои матншиносии тарҷумаи романи «Дохунда»-и С.Айнӣ ба забони русӣ	7
2.	Умуров Ҳотам	Ёзувчи ва қаҳрамон сири	23
3.	Ҳасанов Шавкат Аҳадович	Тарих ва тақдир	28
4.	O'rayeva Darmon Saidaxmedovna, To'rayeva Iroda Sheramatovna	Sadriddin Ayniy asarlarida to'y mavzusi va tasviri	34
5.	Тоҳирова Сарвиноз Хусеновна	Вклад русских ученых-востоковедов и литераторов в исследование персидско-таджикской литературы	40
FOLKLORSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK MASALALARI			
6.	Quvvatova Dilrabo Xabibovna, Safarova Hilola Oxunjonovna	Fitratning adabiyotshunoslikka oid qarashlari	48
7.	Rajabova Ma'rifat Baqoyevna, Ibotova Madina Otabek qizi	Jon va ruh haqidagi ilohiy-irfoniy, falsafiy qarashlar, ularning badiiy ijoddagi in'ikosi	54
8.	O'roqova Nafosat Yoriyevna, Imomova Shahinabonu Ilhom qizi	Erkin Vohidov lirikasida floristik obrazlar talqini	65
9.	Махмудова Робиябону Фурқатовна	Образ матери в повесте Уткира Хашимова “Дунёнинг ишлари”	71
10.	Хайриева Nargiza Ixtiyor qizi	O'tkir Hoshimovning “Yanga” hikoyasida milliy portret ifodasi	76